



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 3/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 3/2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
*Масъул котиб*

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
*Масъул котиб*

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Камола Саипова</b> ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОТряСЕНИЯ 1917 ГОДА И ИЗМЕНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА.....	5
<b>2. Аваз Ерметов</b> ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	15
<b>3. Raximjon Xasanov</b> YOSHLAR MA'NAVİYATI VA MILLIY TARBIYA.....	22
<b>4. Alibek Bengmatov</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY O'ZBEKISTONDA SPORT KADRLARINI TAYYORLASH: SIYOSIY, IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI.....	27
<b>5. Ahmad Ergashev</b> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O'RNI.....	36
<b>6. Baxtiyor Nazirov</b> SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O'YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI.....	45
<b>7. Axmedjon Yusupov, Mohira Abdullayeva</b> O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG'LARNING O'RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDIDA).....	54
<b>8. Абдухолик Мингнарoв</b> XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ.....	60
<b>9. Людмила Соколова</b> ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫШИВКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	67
<b>10. Baxtiyor Xalmuratov</b> O'ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL.....	72
<b>11. Jamshid Peremkulov</b> XIX-ASR IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRI MAHALLALARI TARIXI.....	78
<b>12 Anvarjon Erqo'ziyev</b> XIV – XIX ASRLARDA O'RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI.....	86




UO‘K: 9:433:908

**Ahmad Abdug‘offorovich Ergashev,**  
Tarix fani o‘qituvchisi,  
Navoiy innovatsiyalar universiteti  
Surxondaryo kampusi,  
E-mail: ahmadergashev97@gmail.com

### YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O‘RNI

**For citation:** Ahmad A. Ergashev. NEW UZBEKISTAN STRATEGY: THE ROLE OF LEGAL REFORMS IN MODERNIZING FOOTBALL INFRASTRUCTURE. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845497>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston futbolini rivojlantirish bo‘yicha 2017–2026-yillarda qabul qilingan huquqiy va institutsional islohotlar tahlil qilinadi. Ushbu islohotlar mamlakat sport sanoatini modernizatsiyalash, xususiy investitsiyalarni jalb etish va professional menejmentni mustahkamlashga qaratilgan strategik qadamlarni o‘z ichiga oladi. Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali futbol infratuzilmasini modernizatsiyalash, quyi bo‘g‘inlardan milliy terma jamoalargacha uzluksiz seleksiya tizimini yaratish, xotin-qizlar va yoshlar futbolini rivojlantirish, shuningdek, klublarni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida xususiylashtirish bo‘yicha tizimli mexanizmlar joriy etildi. Raqamlashtirish, trenerlarni litsenziyalash, mahalliy futbol yetakchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va xalqaro standartlarga mos infratuzilma yaratish orqali O‘zbekiston futbolining shaffof, samarali va global raqobatbardosh tizimi shakllantirildi. Mazkur islohotlar ommaviy futbolni rivojlantirish, iqtidorli sport zaxirasini yaratish va sohani iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirishning huquqiy asoslarini ta‘minladi.

**Kalit so‘zlar:** infratuzilma modernizatsiyasi, davlat-xususiy sheriklik, seleksiya tizimi, xotin-qizlar futboli, professional klublar, trenerlar litsenziyasi, futbol akademiyalari, VAR texnologiyasi

---

**Эргашев Ахмад Абдугоффорович,**  
Преподаватель истории,  
Навоийский инновационный университет  
Сурхандарьинский кампус,  
Эл.почта: ahmadergachev97@gmail.com

### СТРАТЕГИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ЮРИДИЧЕСКИХ РЕФОРМ В МОДЕРНИЗАЦИИ ФУТБОЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются юридические и институциональные реформы, принятые в Узбекистане в период с 2017 по 2026 годы для развития футбола. Эти реформы включают стратегические меры, направленные на модернизацию спортивной отрасли страны, привлечение частных инвестиций и укрепление профессионального управления. С помощью указов Президента и постановлений Кабинета Министров были внедрены механизмы модернизации футбольной инфраструктуры, создания непрерывной системы селекции от массового футбола до национальных сборных, развития женского и молодежного футбола, а также приватизации клубов на основе принципов рыночной экономики. Цифровизация, лицензирование тренеров, поддержка местных футбольных лидеров и создание инфраструктуры, соответствующей международным стандартам, способствовали формированию прозрачной, эффективной и конкурентоспособной футбольной системы в Узбекистане. Эти реформы также обеспечили юридическую основу для развития массового футбола, формирования спортивного резерва и обеспечения экономической устойчивости отрасли.

**Ключевые слова:** модернизация инфраструктуры, государственно-частное партнерство, система селекции, женский футбол, профессиональные клубы, лицензирование тренеров, футбольные академии, технология VAR

---

**Ahmad A. Ergashev,**  
History teacher,  
Navoi Innovation University  
Surkhandarya campus,  
E-mail: ahmadergashev97@gmail.com

---

**NEW UZBEKISTAN STRATEGY: THE ROLE OF LEGAL REFORMS IN  
MODERNIZING FOOTBALL INFRASTRUCTURE**

**ABSTRACT**

The article analyzes the legal and institutional reforms adopted in Uzbekistan from 2017 to 2026 to develop football. These reforms encompass strategic measures aimed at modernizing the country's sports industry, attracting private investments, and strengthening professional management. Through decrees of the President and the Cabinet of Ministers, mechanisms were implemented to modernize football infrastructure, create a continuous selection system from grassroots to national teams, develop women's and youth football, and privatize clubs based on market economy principles. Digitalization, coach licensing, support for local football leaders, and the creation of infrastructure compliant with international standards contributed to establishing a transparent, efficient, and globally competitive football system in Uzbekistan. These reforms also provided the legal basis for promoting grassroots football, developing a talented sports reserve, and ensuring the economic sustainability of the sector.

**Index Terms:** infrastructure modernization, public-private partnership, selection system, women's football, professional clubs, coach licensing, football academies, VAR technology

---

**1. Dolzarbligi:**

Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish, xususan, millionlar o'yini bo'lmish futbolni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Zamonaviy dunyoda futbol nafaqat sport turi, balki yirik iqtisodiy industriya, ijtimoiy integratsiya vositasi va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini belgilovchi omilga aylandi. Shu sababli, yurtimizda ushbu sohani tubdan isloh qilish, uning moddiy-texnik bazasini jahon standartlari darajasiga ko'tarish va bu jarayonlarni mustahkam huquqiy asoslar bilan ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylandi.

Futbol infratuzilmasini modernizatsiyalash shunchaki stadionlar qurish emas, balki murakkab huquqiy va institutsional jarayon bo'lib, u mulkchilik munosabatlari, litsenziyalash tizimi va investitsiyaviy jozibadorlikni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillardagi sohani rivojlantirishga oid farmon va qarorlari futbol infratuzilmasini boshqarishda yangi huquqiy muhitni yaratdi. Bu islohotlar davlat stadionlarini professional klublar tasarrufiga berish, ularni soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni shakllantirdi.

So'nggi besh yillikda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar futbol akademiyalari, mashg'ulot bazalari va sport ob'ektlarini barpo etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etgani bilan ahamiyatlidir. Huquqiy islohotlar natijasida professional futbol klublariga o'z infratuzilmasini xalqaro FIFA va Osiyo Futbol Konfederatsiyasi (AFC) talablariga muvofiq qayta qurish majburiyati va huquqiy imkoniyati berildi. Bu esa o'z navbatida, stadionlarning xavfsizligi, muxlislar uchun qulayliklar yaratish va maydonlarning texnik holatini yaxshilashda huquqiy nazorat va standartlashtirish tizimini kuchaytirdi.

Biroq, infratuzilmani modernizatsiyalash jarayonida faqatgina ichki qonunchilik bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro sport huquqi normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalasi ham yuzaga kelmoqda. Stadionlarni litsenziyalash va ulardan tijoriy maqsadlarda foydalanishning huquqiy chegaralarini belgilash, xalqaro musobaqalarni o'tkazish uchun huquqiy kafolatlarni ta'minlash Yangi O'zbekiston strategiyasining ajralmas qismidir. Ushbu maqolada aynan futbol infratuzilmasidagi o'zgarishlarning qonuniy asoslari va ularning soha samaradorligiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda futbol nafaqat sport musobaqasi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va xalqaro imidjini belgilovchi yirik industriyaga aylandi, biroq sohadagi yutuqlar bevosita moddiy-texnik bazaning holatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida futbol infratuzilmasini jahon standartlari darajasiga ko'tarish ustuvor vazifa etib belgilangan bir vaqtda, ushbu jarayonlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada tahlil qilinmaganligi, davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridagi qonunchilik bo'shliqlari hamda xalqaro litsenziyalash talablariga moslashish zarurati ushbu mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan o'rganilishini kechiktirib bo'lmas zaruratga aylantiradi.

## **2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

O'zbekistonda futbol sohasining rivojlanishi va uning huquqiy-ijtimoiy asoslari so'nggi yillarda mahalliy hamda xalqaro tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, R. Abdumalikov va J.E. Eshnazarov kabi olimlar o'zbek sportining milliy an'analardan zamonaviy professional shakllarga o'tishidagi tarixiy kontekstni tahlil qilgan bo'lsalar[14], B.S. Nazirov va R.A. Qosimov kabi tadqiqotchilar mustaqillik yillarida yuritilgan sport siyosatining natijadorligini futbol misolida monografik va ilmiy maqolalar darajasida tadqiq etishgan[16,19]. Ushbu ishlarda futbol nafaqat sport turi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini belgilovchi strategik yo'nalish sifatida talqin etiladi.

Sohadagi zamonaviy islohotlar, xususan, "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasidagi o'zgarishlar S.B. Ilyosboyev va A.A. To'laganovning ilmiy ishlarida keng yoritilgan[15,21]. Tadqiqotchilar 2017-2025-yillar oralig'ida qabul qilingan Prezident farmon va qarorlarining (masalan, PF-5368, PF-5887 va PQ-355) sohani institutsional transformatsiya qilishdagi o'rniga alohida urg'u berishadi. Mazkur adabiyotlarda futbol infratuzilmasini modernizatsiyalash, hududiy assotsiatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va "futbolchi eksporti" tizimini yo'lga qo'yishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy natijalari qiyosiy tahlil qilingan.

Xalqaro miqyosda esa N.S. Abdikadirova va boshqa mualliflar tomonidan xalqaro jurnallarda chop etilgan ishlar o'zbek futbolining huquqiy, sotsiologik va hordiq chiqarish madaniyati sifatidagi jihatlarni ochib beradi[23]. F. Sharipov va S. Ilyosboyev kabi mualliflar milliy terma jamoaning xalqaro turnirlardagi ishtirokini ijtimoiy-madaniy tahlil qilib, futbol sohasidagi yutuqlarni jamiyat salomatligi va yoshlar tarbiyasi bilan uzviy bog'laydilar[20]. Mazkur

adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda futbolning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha fundamental ilmiy baza shakllanib ulgurgan.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy o'rganish va mantiqiy umumlashtirish metodlari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining me'yoriy hujjatlari hamda "Lex.uz" milliy qonunchilik bazasidagi 2017–2026-yillarga oid normativ-huquqiy hujjatlar birlamchi manba sifatida xizmat qildi. Futbol infratuzilmasini modernizatsiyalash va sohani tartibga solishning huquqiy mexanizmlari qiyosiy tahlil qilinib, qabul qilingan hujjatlarning amaliy natijalari (masalan, "Paxtakor" FK xususiyashtirilishi yoki hududiy akademiyalar tashkil etilishi) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy tahlil va statistik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish usullaridan foydalanildi. Bunda 2018–2022-yillarda futbolni rivojlantirish dasturlari va 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik konsepsiyalar doirasida erishilgan ko'rsatkichlar ilmiy adabiyotlardagi nazariy qarashlar bilan qiyoslandi. Metodologik yondashuv futbol sohasidagi islohotlarni bosqichma-bosqich (seleksiya, litsenziyalash, moliyalashtirish va xususiyashtirish) o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'zbek futbolining xalqaro standartlarga integratsiyalashuv darajasini ob'ektiv baholash imkonini berdi.

### **3. Tadqiqot natijalari:**

O'zbekiston futbolini rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda qabul qilingan huquqiy va institutsional islohotlar majmui mamlakat sport sanoatini tubdan modernizatsiya qilish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va professional menejmentni mustahkamlashga qaratilgan strategik qadamlardan iboratdir. 2017–2026-yillar davomida Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari futbol infratuzilmasini modernizatsiyalash, quyi bo'g'inlardan milliy terma jamoalargacha uzluksiz seleksiya tizimini yaratish, xotin-qizlar va iqtidorli yoshlar futbolini rivojlantirish, shuningdek, professional klublarni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida xususiyashtirish bo'yicha tizimli mexanizmlarni joriy etdi. Shu tariqa, raqamlashtirish, trenerlarni litsenziyalash, mahalliy darajadagi futbol yetakchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va xalqaro standartlarga mos infratuzilma yaratish orqali O'zbekiston futbolining shaffof, samarali va global raqobatbardosh tizimini shakllantirishning huquqiy-pedagogik asoslari yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ–3227-sonli qarori mamlakat futbol sanoatida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning fundamental huquqiy asosi bo'lib, "Paxtakor" futbol klubi misolida sport infratuzilmasini xususiy investitsiyalar hisobiga modernizatsiya qilishning samarali modelini yaratdi [1]. Ushbu hujjatga muvofiq, "SFI Management Group" MChJning investor sifatida jalb etilishi va unga ustav fondidagi 80 foiz ulushning 200 milliard so'mlik investitsiya majburiyati evaziga berilishi, klubning moddiy-texnika bazasini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarishda muhim iqtisodiy turtki bo'ldi. Qaror bilan taqdim etilgan soliq imtiyozlari, davlat tenderlarisiz to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish va xorijiy mutaxassislariga valyutada ish haqi to'lash huquqi futbol menejmentidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etib, klubning operatsion erkinligini ta'minladi. Bu kabi kompleks huquqiy yondashuv nafaqat professional klublar faoliyatini litsenziyalash va moliyaviy sog'lomlashtirishga, balki xususiy sektor ishtirokini oshirish orqali O'zbekiston futbolining xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiluvchi institutsional namuna hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli Farmoni mamlakatda futbolni boshqarish va sifatli sport zaxirasini shakllantirishning mutlaqo yangi, ko'p bosqichli tizimini joriy etib, sohadagi islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi [2]. Mazkur hujjat bilan "Bunyodkor" stadioni milliy terma jamoalarning asosiy o'quv-mashq bazasiga aylantirilishi va respublika bo'ylab ixtisoslashtirilgan futbol akademiyalarining tashkil etilishi iqtidorli yoshlarni professional tayyorlashning institutsional asosini yaratdi. Ayniqsa, futbolni quyi bo'g'indan rivojlantirish maqsadida "Ommaviy futbol" (Grassroots), "Maktablarda futbol" va "Talabalar ligasi" kabi dasturlarning yo'lga qo'yilishi, shuningdek, mahallalarda "futbol yetakchisi" lavozimining joriy etilishi seleksiya ishlarini raqamlashtirilgan va tizimli asosga o'tkazish imkonini berdi. Shu bilan birga, ayollar futbolini qo'llab-quvvatlash va imkoniyati cheklangan shaxslar

uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks yondashuv futbolning ommaviyligini oshirish orqali nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki jamiyatda sogʻlom turmush tarzini qaror toptirishning muhim huquqiy kafolati boʻlib xizmat qilmoqda [2].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-sonli qarori mamlakat futbolini tizimli isloh qilishning konseptual asosi sifatida natijalar tahlilida markaziy oʻrin tutadi [3]. Ushbu hujjat iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni bosqichma-bosqich professional darajaga koʻtarishning uzluksiz zanjirini yaratish orqali milliy terma jamoalar uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Ayniqsa, qaror doirasida tasdiqlangan “2018–2022-yillarda Oʻzbekiston futbolini yanada rivojlantirish dasturi” sohadagi xalqaro standartlarga mos murabbiylar va hakamlar korpusini tayyorlash, oʻquv-metodik bazani zamonaviylashtirish hamda professional klublar faoliyatini tartibga solishda muhim amaliy natijalarni koʻrsatdi. Muhokama jarayonida ushbu islohotlarning natijasi sifatida futbol tizimining barcha boʻgʻinlarida raqobatbardosh muhit shakllangani va oʻzbek futbolining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish uchun zarur boʻlgan institutsional sharoitlar yaratilganini alohida taʼkidlash lozim [3].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-avgustdagi 688-sonli qarori futbolni rivojlantirish strategiyasini mahalla darajasiga tushirib, sohadagi islohotlarning ijtimoiy qamrovini kengaytirishda muhim bosqich boʻldi [4]. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, “Har bir mahallada futbol maydoni” dasturining joriy etilishi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali xususiy investorlarga yer hamda boʻsh binolarning berilishi sport infratuzilmasini qisqa muddatda modernizatsiya qilish imkonini bergan. Muhokama jarayonida ushbu hujjatning ikki tomonlama ahamiyati namoyon boʻladi: bir tomondan, mahalla futbol yetakchilari va yoshlar masalalari boʻyicha maslahatchilarning moddiy ragʻbatlantirilishi seleksiya ishlarini eng quyi boʻgʻindan tizimli tashkil etishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, sport obʼektlaridan aholining bepul foydalanishi taʼminlanishi orqali ommaviy futbol (Grassroots) konsepsiyasi amaliyotga tatbiq etilmoqda [4].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-sonli Farmoni mamlakat futbolini modernizatsiya qilishning strategik dasturilamali boʻlib, sohani boshqarishda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda tub burilish yasadi [5]. Natijalar tahlili shuni koʻrsatadiki, mazkur hujjat bilan 2030-yilgacha moʻljallangan rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi futbolni shunchaki oʻyin emas, balki "futbolchi eksporti" va xususiy investitsiyalarga asoslangan iqtisodiy tarmoq sifatida shakllantirdi. Professional klublarning davlat ulushlarini xususiy sektorga oʻtkazish mexanizmlari hamda VAR (Video Assistant Referee) texnologiyasining joriy etilishi oʻzbek futbolining institutsional nufuzini xalqaro standartlar darajasiga koʻtardi. Muhokama doirasida alohida taʼkidlash lozimki, bolalar-oʻsmirlar futbol maktablarining mahorat maktablariga aylantirilishi va seleksioner-skautlar, sport psixologlari kabi tor doiradagi mutaxassislarni tayyorlash tizimining yoʻlga qoʻyilishi "oʻzbek futboli" maktabining ilmiy-metodik poydevorini mustahkamlab, sohani raqamlashtirish va xususiylashtirish orqali global raqobatbardoshlikni taʼminlashga xizmat qilmoqda [5].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6099-sonli Farmoni va Soliq kodeksiga kiritilgan oʻzgartirishlar mamlakat futbol sanoatini iqtisodiy sogʻlomlashtirish hamda moliyaviy barqarorligini taʼminlashda strategik burilish yasadi [6]. Natijalar tahlili shuni koʻrsatadiki, 2023–2026-yillar davomida Oʻzbekiston futbol assotsiatsiyasi, PFL va professional klublarning barcha turdagi soliqlardan (ijtimoiy soliq mustasno) ozod etilishi, shuningdek, chetdan keltiriladigan sport inventarlar uchun QQS imtiyozlarining berilishi ichki resurslarni infratuzilmani modernizatsiya qilishga yoʻnaltirish imkonini berdi. Ushbu imtiyozlarning xorijiy mutaxassislar va futbolchilar daromad soligʻiga ham tatbiq etilishi, "futbol bozori"ni liberallashtirish va xususiy klublar sonini koʻpaytirish orqali sogʻlom raqobat muhitini yaratishga xizmat qildi [6].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi 311-sonli qarori Oʻzbekistonda futbolni boshqarishni vertikal tizim asosida takomillashtirish va sohani hududiy darajada rivojlantirishning huquqiy asosi boʻlib xizmat qildi [7]. Natijalar tahlili shuni koʻrsatadiki, har bir tuman va shaharda kamida bitta futbol jamoasi hamda markaziy stadionning mavjudligi

talabi qo'yilishi, futbol infratuzilmasini eng quyi bo'g'ingacha yetib borishini ta'minladi. Hududiy futbol assotsiatsiyalariga mahalliy budjet va homiylik mablag'larini jalb qilish mexanizmlarining joriy etilishi, "Sport maktablari futbol ligasi" kabi musobaqalarning moliyalashtirilishi seleksiya ishlarini tizimlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu qaror FIFA standartlariga mos mashg'ulot markazlarini barpo etish va futbol agentlari faoliyatini tartibga solish orqali "o'zbek futboli" brendini professional darajaga ko'tarish, shuningdek, hududiy assotsiatsiyalarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan mustaqil tuzilmalarga aylantirishning institutsional mexanizmini yaratdi [7].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-apreldagi 261-sonli qarori O'zbekistonda professional futbol klublarini davlat qaramog'idan bosqichma-bosqich chiqarish va ularni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida transformatsiya qilishning huquqiy mexanizmini belgilab berdi [8]. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, klublardagi davlat ulushlarining xo'jalik jamiyatlariga o'tkazilishi va xususiylashtirishga tayyorlanishi sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda klublarning moliyaviy rentabelligini oshirishda asosiy omil bo'lmoqda. Futbol stadionlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish, ularni yil davomida daromad keltiruvchi ko'ngilochar va xizmat ko'rsatish maskanlariga aylantirish bo'yicha belgilangan "yo'l xaritasi" infratuzilmaning iqtisodiy samaradorligini tubdan yaxshiladi. FIFA va OFK standartlari asosida xarajatlar smetasini tasdiqlash tizimining joriy etilishi esa klublar boshqaruvida shaffoflikni ta'minlab, investitsion jozibadorlikni oshirish va o'zbek futbolini tijoriylashtirish orqali xalqaro andozalar darajasiga olib chiqishning strategik asosi bo'lib xizmat qilmoqda [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 159-sonli qarori futbol islohotlarini hududiy ixtisoslashuv asosida jadallashtirish va xotin-qizlar futbolini institutsional qo'llab-quvvatlashda yangi modelni joriy etdi [9]. Jizzax viloyati misolida "So'g'diyona" va "So'g'diyona Vumen" klublari huzurida nodavlat Futbol akademiyasining tashkil etilishi, yosh iqtidorlarni 7 yillik uzluksiz ta'lim tizimi asosida tayyorlashning zamonaviy metodikasini shakllantirdi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, akademiyaning transfer kompensatsiyalari va homiylik xayriyalari kabi mustaqil moliyaviy manbalar asosida faoliyat yuritishi, sport ta'limi muassasalarining davlat budjetiga yukini kamaytirib, ularning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu qaror ayollar futbolini rivojlantirish va hududiy seleksiya ishlarini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarishdagi o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u mahalliy infratuzilmani ilmiy-metodik ta'minot bilan integratsiya qilish orqali raqobatbardosh "o'zbek futboli" maktabini hududlar kesimida mustahkamlashga qaratilgan strategik qadamdir [9].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-yanvardagi 4-sonli qarori O'zbekistonda futbol klublarini xususiylashtirish jarayonining amaliy bosqichga o'tganligini va sohada davlat ishtirokini qisqartirish strategiyasining qat'iyligini namoyon etdi [10]. "Surxon" professional futbol klubining ustav fondidagi davlat ulushini "FC-Surhan" MChJga to'g'ridan-to'g'ri sotilishi bo'yicha qabul qilingan ushbu qaror, klublarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ularni to'liq bozor mexanizmlari asosida boshqarish imkonini yaratdi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, klubning kreditor qarzdorliklarini bartaraf etish va mustaqil audit tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha belgilangan qat'iy muddatlar investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xususiy mulkdorning mas'uliyatini shakllantirishda muhim huquqiy instrument bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tajribaning boshqa professional klublar uchun ham model sifatida ko'rilayotganligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi orqali tizimli xususiylashtirishning davom ettirilishi o'zbek futbolida professional menejmentni qaror toptirish, investitsiyaviy faollikni oshirish va klublarning o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan strategik yutuqdir [10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-sonli qarori mamlakat futbolini rivojlantirishning ko'p pog'onali modelini huquqiy jihatdan mustahkamlab, sohani tizimli transformatsiya qilishning yakuniy strategik bosqichini belgilab berdi [11]. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahallalardan boshlab milliy terma jamoalargacha bo'lgan uzluksiz zanjirning yaratilishi, xususan, futbol maktablarining O'FA tasarrufiga o'tkazilishi seleksiya ishlarida yagona ilmiy-metodik yondashuvni qaror toptirdi. Argentina, Marokash va Fransiya kabi futboli rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi asosida VAR tizimini kengaytirish va

raqamlashtirishni joriy etish o'zbek futbolining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda asosiy drayver bo'layotgani alohida qayd etiladi. Ushbu qaror nafaqat infratuzilmani modernizatsiyalash, balki "Ommaviy futbol" va "Talabalar ligasi" orqali ijtimoiy qamrovni kengaytirish, xususi sektor bilan hamkorlikda professional kadrlar tayyorlash tizimini jahon andozalariga moslashtirishning kompleks huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda [11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi PQ-355-sonli qarori mamlakat futbol ta'limi tizimini institutsional transformatsiya qilish va moddiy-texnik bazani tubdan yangilashning strategik bosqichi sifatida natijalar tahlilida muhim o'rin egallaydi [12]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan ajratilgan 50 million AQSh dollari miqdoridagi foizsiz kreditlar hisobiga Milliy futbol markazi va hududiy akademiyalarda xalqaro standartlarga mos yopiq menejlar va tibbiyot markazlarining barpo etilishi futbol infratuzilmasini yil davomida uzluksiz ishlash rejimiga o'tkazdi. Seleksiya jarayonlarini raqamlashtirish va 2025-yildan trenerlarni majburiy litsenziyalash tizimining joriy etilishi kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bilan birga, inson omilini kamaytirish orqali tizim shaffofligini ta'minlandi [12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi PQ-136-sonli qarori mamlakat futbolini rivojlantirish strategiyasini eng quyi bo'g'inga – mahalla tizimiga integratsiya qilishning yakuniy va hal qiluvchi bosqichi bo'ldi [13]. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahallalardagi yoshlar yetakchilariga futbolni rivojlantirish bo'yicha vakolatlarining berilishi va sport inshootlaridan tizimli foydalanish tartibining joriy etilishi, iqtidorli yoshlarni aniqlashning "mahalla – maktab – akademiya" tamoyili asosidagi uzluksiz zanjirini yaratdi. "Mahalla ligasi" va "DXX kubogi" kabi musobaqalarning ommaviylashishi, shuningdek, sport maktablarida futbol bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimining joriy etilishi seleksiya jarayonlarini professional boshqaruv darajasiga ko'tarib, davlat budjeti hisobidan namunaviy sport inshootlarini qurishda jamoaviy sport turlariga ustuvorlik berilishi infratuzilma tanqisligini bartaraf etishga xizmat qilmoqda [13].

Ushbu huquqiy islohotlar majmuasi futbolni boshqarishda shaffoflikni ta'minlash, dopingga qarshi kurashish va futbolchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish orqali sohaning institutsional mustaqilligini yangi bosqichga olib chiqdi. Muhokama jarayonida qayd etish lozimki, xalqaro standartlarga mos keladigan infratuzilmaning yaratilishi va mahalliy darajadagi seleksiya tizimining raqamlashtirilishi O'zbekiston futbolining global maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi fundamental poydevordir. Futbolning ommaviyligini oshirish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan ushbu aniq mexanizmlar nafaqat professional sport natijalarini yaxshilashga, balki barqaror sport zaxirasini shakllantirishning uzoq muddatli strategik maqsadlariga to'la muvofiq keladi.

#### **4. Xulosa:**

So'nggi yillarda O'zbekiston futbolini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan huquqiy va institutsional islohotlar mamlakat sport tizimida kompleks o'zgarishlarni rag'batlantirdi. Davlat-xususi sheriklik mexanizmlari va xususi investitsiyalarni jalb qilish orqali professional klublarning moddiy-texnika bazasi xalqaro standartlar darajasiga ko'tarildi, futbol infratuzilmasi modernizatsiyalash va seleksiya jarayonlari raqamlashtirish orqali samarali boshqaruvga o'tkazildi. Shu bilan birga, trenerlarni litsenziyalash va murabbiylar hamda hakamlar korpusini tayyorlash tizimlari institutsional barqarorlikni mustahkamladi.

Quyi bo'g'inlardan milliy terma jamoalargacha uzluksiz seleksiya tizimi, "mahalla – maktab – akademiya" modeli va hududiy futbol assotsiatsiyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash O'zbekiston futbolining shaffof va raqobatbardosh tizimini yaratishga xizmat qilmoqda. Ommaviy futbol konsepsiyasi va iqtidorli yoshlar uchun uzluksiz ta'lim dasturlari orqali sportning jamoaviy ommaviyligi kuchaytirildi, ayollar futboli va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun shart-sharoitlar yaratildi, bu esa ijtimoiy qamrovni kengaytirishga yordam berdi.

Professional klublarni xususiylashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarini tatbiq etish orqali moliyaviy rentabellik va investitsion jozibadorlik oshirildi. Futbol stadionlari va akademiyalarni yil davomida ishlashga moslashtirish, VAR tizimi va xalqaro standartlarga mos mashg'ulot

markazlarini joriy etish o'zbek futbolini global maydonda raqobatbardosh qilishga xizmat qildi. Shu tariqa, futbol nafaqat sport natijalari, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham barqaror rivojlanishning strategik vositasiga aylandi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan huquqiy islohotlar va institutsional transformatsiyalar O'zbekiston futbolining barqaror rivojlanishi, professional menejmentning mustahkamlanishi va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy poydevor sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon futbolning ommaviylikini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va milliy sport zaxirasini shakllantirishning uzoq muddatli strategik maqsadlariga to'la muvofiq keladi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

---

#### I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3227-son Qarori "Paxtakor" futbol klubining moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.08.2017. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3317371>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son Farmoni "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2018. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3815674>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-son Qarori "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2018. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3589863>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-avgustdagi 688-son Qarori "Fuqarolar yig'inlarida sportning futbol turini yanada rivojlantirish hamda fuqarolar yig'inlari raislarining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2018. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3865429>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son Farmoni "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4631208>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020. URL: <https://lex.uz/docs/-5077667>

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi 311-son Qarori "Hududiy futbol assotsiatsiyalari faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.05.2020. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4823444>

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-apreldagi 261-son Qarori "Futbol klublari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5410817>

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 159-son Qarori "Jizzax viloyatida futbolni yanada rivojlantirish va ommalashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2022. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5941977>

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-yanvardagi 4-son Qarori "'Surxon' professional futbol klubi" MChJ ustav fondidagi davlat ulushini "FC-Surhan" MChJga sotish to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2023. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6343110>

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ–115-son Qarori “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.04.2023. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6426271>

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi PQ–355-son Qarori “Futbol-ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.11.2023. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6652964>

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi PQ–136-son Qarori “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.03.2024. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6845465>

## II. Monografiyalar, risolalar va ilmiy maqolalar

14. Abdumalikov R., Eshnazarov J.E. O‘zbekiston sportining milliy an‘analaridan zamonaviy shakllariga o‘tish: tarixiy kontekst // Ilmiy tadqiqotlar jurnali (O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti materiallari). – Toshkent, 2023.

15. Ilyosboyev S.B. O‘zbekistonda futbol sohasining rivojlanishi // Nauka i innovatsiya (Science and Innovation). – 2025. – 3(13). – B. 16–20. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15321448>

16. Nazirov B.S. Mustaqillik yillarida o‘zbek futboli yutuqlari: tahlil va natijalar // Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – №6. – ISSN 2181-2659.

17. Nazirov B.S. O‘zbekistonda ommaviy sport o‘yinlari tarixi (sportning futbol turi misolida): Monografiya. – Toshkent: Bekshox print servis, 2025. – 151 b.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2023-yil 3-noyabr) va uning amaliyotdagi ijtimoiy-siyosiy ta‘siri: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy hisoboti. – Toshkent, 2025.

19. Qosimov R.A., Axmatov M.S. Mustaqillik davrida O‘zbekiston sport siyosati: futbol misolida // O‘zbekiston tarixi (O‘zbekiston Milliy universiteti nashri). – 2022. – №3. – B. 78–92.

20. Sharipov F., Ilyosboyev S. O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasining 2026-yilgi FIFA Jahon chempionatiga chiqishi: ijtimoiy-madaniy tahlil // Nauka i innovatsiya. – 2025. – Maxsus son.

21. To‘laganov A.A. O‘zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro integratsiyasi (1992–2025-yillar) // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2024. – 39-son, 5-to‘plam.

22. To‘laganov A.A., Kazoqov R.T. Futbol konfederatsiyalari tarixi: Usuliy qo‘llanma. – Chirchiq: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2019. – 120 b.

23. Abdikadirova N.S., Nurillaeva D.S., Azamova M.G. et al. Football in Uzbekistan: Law, Leisure and Sociology // Psychology and Education Journal. – 2021. – Vol. 58, No. 1. – P. 1995–2002. – ISSN 0033-3077.

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 5 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola (IMRAD) 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 5 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новый текст начинается со следующей строки, и статья состоит из (IMRAD) 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должны быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 5 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists (IMRAD) of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].